

# Yoshlar bilan uchrashuv



## Yoshlar bilan uchrashuv

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy qilingan "Yoshlar bilan ishlashning yangicha tizimi" doirasidagi ishlarning amaliy ijrosi yuzasidan bugun Termiz shahridagi matbuot uyida, Milliy gvardiya Surxondaryo viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i polkovnik Sh.Saidov, Milliy gvardiya viloyat Qo'riqlash boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik A.Umarov va Termiz shahar qo'riqlash bo'limi boshlig'i mayor Sh.Qurbonovlar shahardagi yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ochiq muloqotlarda har bir yigit-qiz bilan individual suhbat qilinib, ularning mavjud muammolari, takliflari, orzu istaklari tinglandi. Ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka yo'naltirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. Murojaatlarni ijobiy hal etish yuzasidan mutasaddilarga tegishli tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Viloyat bo'ylab joylarda Milliy gvardiyaga birlashtirilgan yoshlarni o'rganish bo'yicha uchrashuvlar davom etmoqda.





Image not found or type unknown

